

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**XO‘JAYEVA GULJAHON ERGASHEVNA**

**TARIQ BUG‘RO ROMANLARIDA EPIK KONSEPSIYA  
TARIXIYLIGI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in  
Philology Sciences**

**Xo‘jayeva Guljahon Ergashevna**

Tariq Bug‘ro romanlarida epik konsepsiya tarixiyligi..... 3

**Хужаева Гульжахон Эргашевна**

Исторический характер эпической концепции в романах Тарыка Бугры ..... 25

**Khojayeva Guljahon Ergashevna**

The Historical Nature of the Epic Concept in the Novels of Tarik Bugra..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 52

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMiy KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**XO‘JAYEVA GULJAHON ERGASHEVNA**

**TARIQ BUG‘RO ROMANLARIDA EPIK KONSEPSIYA TARIXIYLIGI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**



**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/ Fil2861. raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponentlar:**

**Hasanov Nodirxon Dadaxonovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Funda Toprak**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_raqamli reestr bayonnomasi)

**N.Z. Normurodova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalk ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalk ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**D.R. Yusupova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalk ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida tarixiy mavzuda yaratilgan badiiy asarlarning xalq ongiga ta'siri, tarixiy shaxs obrazining adabiy talqini hamda o'tmish voqeligining zamonaviy adabiyotda poetik aks ettirilishi muhim ilmiy masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jihatlarni tadqiq etish milliy qadriyatlar va umumbashariy timsollar shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy adabiyotda tarixiy mavzuga murojaat qilish hamda buyuk tarixiy shaxslarni badiiy gavdalantrish muayyan davrning ijtimoiy, madaniy va axloqiy-estetik ehtiyojlaridan kelib chiqadigan tabiiy jarayondir. Adabiyotning asosiy vazifasi olam va insoniyat haqidagi haqiqatni badiiy aks ettirishdan iborat bo'lganligi sababli, mustaqillik davri adabiyotida tarixiy shaxs tasvirining ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida o'rganilishi dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi.

Dunyodagi barcha xalqlar adabiyotida muayyan tarixiy davrlarda tarixiy shaxs fenomenining badiiy idrok etilish tendensiyasi kuzatiladi. Bu jarayon obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida shakllanadi. O'tmish voqeligini zamonaviy adabiyotda tasvirlashning asosiy maqsadi insoniyatni ezgulikka yo'naltirish, bugungi kun uchun muhim xulosalar chiqarish hamda kelajak taraqqiyotiga oid ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Har bir ijodkorning tarixiy mavzuda asarlar yaratishdagi badiiy mahorati uning milliy tarix va madaniy an'analarni qay darajada teran anglagani hamda o'z asarlarida haqqoniy aks ettirganiga bog'liqdir. Bugungi kunda jahon adabiyotshunosligida tarixiy mavzudagi badiiy asarlarni, ayniqsa, buyuk shaxslar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ijodiy namunalarning genetik va poetik tahlilini ilmiy asosda o'rganish alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanmoqda. Ushbu tadqiqotlar tarixiy shaxsiyatlarning adabiyotdagi talqini, ularning poetik tasviri va badiiy individuallashtirish tamoyillarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida avvalgi davrda adiblar ijodini asosan g'oyaviy-badiiy jihatlardan tadqiq qilish ustuvorlik qilgan bo'lsa, mustaqillik davriga kelib, dunyo adiblari ijodini adabiy ta'sirlanish va o'ziga xoslik paradigmalari orqali o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Qolaversa, turkiy tilli qator davlatlarning mustaqil taraqqiyot yo'lini tutganligi ilm-fan borasidagi integratsiyaning kuchayishi va hamkorlikning kengayishi fonida mazkur xalqlar adabiyotini ilmiy tadqiq qilish zarurati paydo bo'ldi. Zotan, tarixiy ildizlari bir bo'lgan qardosh xalqlar adabiyotini o'rganish milliy o'zlikni anglash yo'lidagi katta odimlardan biridir. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, oldimizga qo'yilgan ulkan vazifalarning amalga oshirilishi, haqiqatan ham, biz uchun kuch-qudrat manbayi bo'ladigan, odamlarni muayyan maqsad sari ishontirib, safarbar etadigan milliy g'oyani yanada rivojlantirishimiz bilan bog'liq. "Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmolari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijiy va o‘zbek adabiyotshunosligida tarixiy voqelikning badiiy tasvirga transformatsiyalanish jarayoni, tarixiy obraz yaratishning nazariy-metodologik mezonlari, ijodiy jarayonning laboratoriyasi hamda adib shaxsiyatining badiiy taraqqiyoti singari kontseptual masalalar kompleks va tizimli asosda chuqur tahlil qilingan. S.Rouliy, S.Fazzi, J.Thorndike, N.Mambrol, V.Rabbani, T.G.Serdyuk, G.Shpayer, O.B.Zolotuxina, I.S.Boldonova, T.E.Sanjiyeva, A.S.Novolodskiy, I.S.Volkov<sup>2</sup> kabi ingliz va rus tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida tarixiy shaxslarning badiiy talqini, xususan, Chingizxon va Ivan Grozniy kabi hukmdorlarning obrazini aks ettirgan asarlarga nisbatan ilmiy-nazariy yondashuvlar ilgari surilgan. O‘zbek adabiyotshunosligi doirasida esa D.Q.Naimova, U.S.Sultonova, F.M.Xajiyeva,

---

<sup>2</sup> Steven R. Writing fiction about fact: Using historical figures as characters. – 2019, April 18. Cindy F. Writing fiction about a historical figure // Writing in the Modern Age, 2019. John T. 5 considerations for writing about historical figures in fiction // Writer’s digest, 2018. Nasrullah M. Historical representations in Indian historical novels // Literary Theory and Criticism, July 2018. Waheed R. Indian Historical Novels: The Origin and Evolution of the Historical Novel Written by Indians in English // Historical novels review, May 2019. Сердюк Т. Г. Исторический тип и исторический образ, монография. АлтГУ, 2016. Шпайер Г. Литературный портрет Литературная энциклопедия. – М.: ОГИЗ. РСФСР, Гос. ин-т. “Сов. Энцикл.”, 1935. Золотухина О.Б. Психологизм в литературе, пособие. ГрГУ, 2009. ISBN 978-985-515-157-0. Болдонова И.С., Санжиева Т.Е. Герменевтический историзм: Художественный образ Чингисхана в современной бурятской литературе как фактор развития национального самосознания // Вестник Бурятского государственного университета, 2012. Новолодский А.С. Образ И.Грозного как защитника Руси и православного христианства в московском летописании// Преподаватель XXI века, 2019. – С.253. Волков И.С. Образ Ивана Грозного в творчестве И.С.Тургенева 1870-х гг.: повесть “Степной Король Лир” // Вестник Томского государственного университета. 2017. № 419. – С. 23.

F.I.Ikromxonova, O.I.Adizova, B.B.To‘rayeva<sup>3</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlari ushbu masalaning turli aspektlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Qardosh turk adabiyoti tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar ham talaygina bo‘lib, ularda turk nazmi va nasrining turli masalalari, nasriy hamda dramatik adabiy tur va janrlarning shakllanishi omillari atroflicha yoritilgan<sup>4</sup>. Shuningdek, Ahmet Kabakli, Beshir Ayvaz o‘g‘li, Jevdet Kudret, Ibrohim Tarali, Riza Mollof, Nejd det Sakao‘g‘li, Ahmed Akgunduz, Jahit Kavjar, Mine Mengi, Muharrem Kaya, Hulya Argunshah kabi bir qator turk<sup>5</sup> adabiyotshunoslarining ilmiy ishlarida turk romanchiligining turli qirralari, Tariq Bug‘ro ijodining ayrim xususiyatlari ochib berilgan. O‘zbek adabiyotshunoslari ham turk adabiyotining ayrim masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Bu yo‘nalishda qator maqolalar chop etildi, o‘quv adabiyotlari nashr etildi, xususan, A. Alimbekov<sup>6</sup> Yashar Kamol ijodi yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Alohida diqqat qaratish zarurki, A. Alimbekov turk tarixiy romanchilik maktabining shakllanishi, tarixiy romanlarning tiplari, shu bilan birga, Tariq Bug‘roning qisqacha tarjimai holi va asarlarining nomlari haqida aniq va lo‘nda ma‘lumotlar beruvchi maqolasida “Usmon G‘ozixon” romanining badiiyatiga oid fikr va mulohazalarini ham bayon etadi<sup>7</sup>.

---

<sup>3</sup> Наимова Д.К. Образ Амира Темура в зарубежной литературе // Наука, образование и культура, 2020. – С. 42. Sultonova U.S. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridagi qahramon obrazlar tavsifi // Oriental Renaissance, February, 2022. Ф.М.Хажиева. Биографик роман жанри хусусиятлари (И.Стоун, М.Қориев ва Н.Норматов асарлари кийсида). Филол.фанл.бўйича фалс.докт. диссертацияси. – Toshkent, 2018. – 153 б. F.I.Ikromxonova. O‘zbek va inglizzabon nasrda tarixiy asar poetikasi. Filol.fanl.dokt. dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – 256 б. Адизова О.И. Адабиётшуносликда биографик метод ва ундан Азиз Қаюмовнинг фойдаланиш маҳорати. Филол.фанл.бўйича фалс.докт. дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 52 б. Тўраева Б.Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси: Филол. фан. бўйича фалс. доктори диссертацияси. – Тошкент, 2018. – 157 б.

<sup>4</sup> Современная Турция. – Москва, 1965; Гарбузова В.С. Поэты средневековой Турции. – Ленинград, 1963; Фиш Р.Г. Писатели Турции – книги и судьбы. – Москва, 1963; Айзенштейн Н.А. Из истории турецкого реализма. – Москва, 1968; Гарбузова В.С. Поэты Турции XIX в. – Ленинград, 1970; Кямилев Х., У истоков современной турецкой литературы, М., 1967; Алькаева Л., Бабаев А., Турецкая литература. Краткий очерк, – Москва, 1967; Айзенштейн Н. А., Из истории турецкого реализма, – Москва, 1968; Маштакова Е. И., Из истории сатиры и юмора в турецкой литературе (XIV-XVII вв.), – Москва, 1972; Алькаева Л. О., Из истории турецкого романа. 20-50-е годы XX в. – Москва, 1975; Гарбузова В.С. Поэты Турции первой половины XX в. – Ленинград, 1975; Шабанов Ф.Ш. Государственный строй и правовая система Турции в период Танзимата. Баку, 1967.

<sup>5</sup> Ahmet Kabaklı. Türk Edebiyatı 5.cilt. – İstanbul, 2004.; Beşir Ayvazoğlu. Tarık Buğra - Güneş Rengi Bir Yığın Yaprak. – İstanbul: Biyografi, 1995.; Kichik og‘a Tarık Buğra. – Kapı Yayınları, 2002; Cevdet Kudret. Türk Edebiyatında Hikâye ve Roman. – İstanbul, 1987.; İbrahim Tatarlı, Rıza Mollof. Hüseyin Rahmi‘den Fakir Baykurt‘a kadar Türk romanı. – İstanbul: Sofya, 1968; Necdet Sakaoğlu. Bu Mülkün Sultanları 36 Osmanlı Padişahı, 1999; Ahmed Akgündüz, Said Özürlük. Bilmeyen Osmanlı. İstanbul, 1999; Cahit Kavcar. Batılılaşma Açısından Servet-i Fünun Romanı. Ankara, 1995; Mine Mengi. Eski Türk Edebiyatı Tarihi. Ankara, 2005; Kaya M. Romanlarımızda Türk Destanlarının Devamı. PhD diss., Marmara Üniversitesi, Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, 1999; Argunşah H. Türk Edebiyatında Tarihî Roman (Türk Tarihiyle İlgili). PhD diss., Marmara Üniversitesi, 1990.

<sup>6</sup> Алимбеков А. Тарих жозибаси // Моҳият, 2005 йил 30 декабрь, № 51-52; Алимбеков А.. Бадий тарих манзаралари. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2006, 13 январь, № 2; Алимбеков А.. Тарихнинг тиник тасвири. //Туркология масалалари. Илмий мақолалар тўплами, 1-сон, А.Навой номли Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Т., 2006; Аминова Л. Турк ёзувчиси Яшар Камол асарларида бадий маҳорат масалалари: Филол.ф.н....лис. автореф. –Т., 2003; Аминова Л. Яшар Камол - ҳаёт // Шарқшунослик. – 2000. -№ 1. –Б. 7-10; Аминова Л. Яшар Камолнинг. Инжа Мамад. романида қароқчилар образи// Тил ва адабиёт таълими. -2002. № 2. –Б. 46-52; Аминова Л. Рамзийлик ва ҳаёт ҳақиқати (Яшар Камол. Таянч устун. романи мисолида)// Тил ва адабиёт таълими. -2002. -№2. -Б. 48-52.

<sup>7</sup> Алимбеков А.. Тарих Буғра ва турк ромanchилиги. // Жаҳон адабиёти. 2006 йил, июнь.

Ushbu ilmiy ishlarda tarixiy roman janri xususiyatlari, turk adabiyoti tarixiy obraz yaratish an'anasiga doir qimmatli fikrlar mavjud bo'lsa-da, Tariq Bug'ro romanlari fundamental tadqiq qilingan emas. Albatta, ularda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va ilgari surilgan g'oyalar zamonaviy turk adabiyotida tarixiy romanchilikning rivojlanish jarayonini chuqur o'rganishda metodologik ahamiyatga egadir.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Tariq Bug'ro romanlarida epik konsepsiyaning tarixiylik tamoyillari asosida shakllanish jarayonini tahlil qilish hamda ularning badiiy-estetik mohiyatini aniqlash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Tariq Bug'ro ijodidagi epik konsepsiya tushunchasini aniqlash va uning xususiyatlarini belgilash;

adib romanlarida tarixiylik omilining ifodalanish usullari va badiiy talqinini o'rganish;

Tariq Bug'ro asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning o'zaro nisbatini tahlil qilish;

epik konsepsiyaning syujet, obrazlar tizimi va badiiy struktura bilan bog'liqligini asoslash;

adib romanlarining turk va jahon adabiyotidagi tarixiy epik an'analar bilan bog'liqligini dalillash;

Tariq Bug'ro romanlarida milliy g'oya va tarixiy voqelik aks ettirilishining badiiy-estetik ahamiyatini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Tariq Bug'roning "Usmon G'ozixon" va "Kichik og'a" romanlari belgilandi.

**Tadqiqotning predmetini** Tariq Bug'ro romanlarida epik konsepsiyaning tarixiylik asosida shakllanishini asoslash va ushbu jarayonda tarixiy voqelik va badiiy-estetik talqin tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Qo'yilgan vazifalarni hal etishda tahlil va sintez, taqqoslash, tarixiy-tipologik yondashuv, strukturaviy tahlil, germenevtik, biografik tadqiq usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Tariq Bug'ro romanlarida epik konsepsiyaning tarixiylik tamoyillari asosida shakllanishi adib diqqat-markazidagi milliy uyg'onish g'oyasini ochib berishda, tarixiy fakt va badiiy talqin muvofiqligi uchun individual yondashuv ta'minlanishida, voqealar xronologiyasi va epik ko'lam yaxlitligini ta'minlashda hamda xalq hayotining burilish nuqtalarini obrazli umumlashtirishda muhim badiiy-estetik vazifa bajarishi asoslangan;

adibning tarixiy romanlari syujetida o‘tmish voqeligi roviyning sub’yektiv qarashlari va badiiy mantiq asosida qayta yaratilib, tarixiy shaxslarni syujet jarayoniga xalqchilik ruhiyatida olib kirish va boshqarish, syujet tadrijida milliy davlatchilik mafkurasidan kelib chiqib kutilmagan kompozitsion burilishlar hosil qilish hamda syujetni harakatlantiruvchi “ijtimoiy mas’uliyat” kabi estetik kategoriyalarni yuzaga chiqarishi dalillangan;

tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima nisbatlarining epik tasvirida psixologizm qahramonlar (Usmon G‘ozi, Kichik og‘a) ichki dunyosi va vatanparvarlik falsafasini ochib berish, milliy ozodlik harakati jarayonini butun murakkabligi bilan tasvirlash, ijtimoiy jarayonlar aksini shaxs xarakteri va “ruhning uyg‘onishi” orqali ko‘rsatish, vizual va dinamik portret yaratish orqali qahramon siyratining o‘zgarishini ta‘minlash singari estetik funksiyalarni ado etishi, shuningdek, dialogni shaxslararo to‘qnashuv emas, balki g‘oyalar kurashi sifatida aks ettirishi isbotlangan;

epik konsepsiya har bir romanda o‘ziga xos individual uslubda tasvirlanishi, jumladan, “Usmon G‘ozixon” romanida davlat qurish motivi va ajdodlar o‘giti yetakchilik qilishi, “Kichik og‘a” asarida esa shaxsning o‘zligini anglash orqali milliy kurashga kirishi, xarakterlarning hayot-mamot muammolari silsilasi fonida yoritilishi, qahramonlarda milliy g‘oyadan chekinish yoki sun‘iylik yo‘qligi, ularning o‘z ko‘ngli va e‘tiqodini taftish qiluvchi fidoyi ruh egalari sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tariq Bug‘ro romanlarining epik konsepsiya va tarixiylik jihatidan o‘rganilishi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi;

tadqiqot natijalari turk adabiyoti, tarixiy roman poetikasi va epik konsepsiya bo‘yicha oliy ta‘lim darsliklari hamda maxsus kurslar yaratishda foydalanish imkoniyatini berishi, bu esa adabiyotshunoslik ta‘lim jarayonida yangi ilmiy yondashuvlarni joriy etish zarurligi;

asarlardagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning nisbatlari turkologik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy mezon bo‘lib xizmat qilishi, bu mezonlar orqali adib ijodining tarixiy asoslari va badiiy tafakkur uslubi chuqurroq tahlil qilinishi;

ish natijalari tarjimonlar, adabiyotshunoslar va yozuvchilar uchun badiiy asarlarni tahlil qilish hamda tarjima jarayonida qo‘llashga yordam berishi va bu tarixiy-badiiy romanlarning tarjima hamda talqin jarayonlarida ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish kabilar bilan isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** foydalanilgan ilmiy manbalar, adabiy-nazariy yondashuvlar va tarixiy dalillarning haqqoniyligi, shuningdek, Tariq Bug‘ro romanlarining epik konsepsiya va tarixiylik nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilinishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Tariq Bug‘ro romanlarida epik konsepsiyaning tarixiylik asosida shakllanishi, uning badiiy-estetik talqini va tarixiy haqiqat bilan o‘zaro nisbatining

aniqlanishi, tadqiqot natijalari tarixiy-badiiy roman janrining nazariy asoslarini boyitib, turk adabiyoti hamda epik adabiyot tadqiqotiga yangi ilmiy yondashuvlarni olib kirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida turk adabiyoti, tarixiy roman poetikasi va epik konsepsiya bo'yicha maxsus kurslar va darsliklar yaratishda qo'llanishi, shuningdek, adabiyotshunoslar, tarjimonlar va yozuvchilar uchun metodik manba sifatida foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Tariq bug'ro romanlarida epik konsepsiya tarixiyligi tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Turkiy xalqlar adiblari ijodida epik konsepsiya tushunchasini aniqlash va uning xususiyatlarini belgilash, tarixiylik omilining ifodalanish usullari va badiiy talqinini o'rganishga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O'zbek adabiyoti tarixi” ko'p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-iyundagi 01/04-2476-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur fundamental loyihaning nazariy-metodologik bazasi turkiy xalqlar adabiyoti, xususan, turk romanchiligidagi epik konsepsiya va tarixiylik tamoyillariga oid yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

badiiy asarda tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning nisbatlari, epik konsepsiyaning syujet va obrazlar tizimidagi o'rni hamda Tariq Bug'ra romanlarida milliy g'oya va tarixiy voqelik aks ettirilishining badiiy-estetik ahamiyatiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyahasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-iyundagi 01/04-2477-son ma'lumotnomasi). Natijada romanlarda tarixiylik omilining ifodalanish usullari va badiiy talqini, epik konsepsiyaning badiiy struktura bilan bog'liqligi masalalari bo'yicha olingan natijalar elektron platforma kontentini boyitishga xizmat qilgan;

o'tmish voqeligini zamonaviy adabiyotda tasvirlash, tarix va madaniy an'analarni badiiy matnda aks ettirishga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2023-yillarda bajarilgan IL-52 tur-21091433 raqamli “O'zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish” (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) mavzusidagi amaliy tadqiqot loyahasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-iyundagi 01/04-2478-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy ish natijalari loyihani madaniy an'analarning badiiy matndagi in'ikosi va tarixiylik kategoriyasiga doir nazariy materiallar bilan to'ldirishga asos bo'lgan;

Tariq Bug‘raning “Usmon G‘ozixon” va “Kichik og‘a” romanlaridagi tarixiy-epik konsepsiyaning tahlili, milliy identitet va tarixiy xotiraning badiiy talqini kabi masalalarga doir ilmiy-nazariy xulosalardan TRT Avaz telekanalining “Türkistan Gündemi” va “Avaz Haber” ko‘rsatuvlari ssenariylarini yozishda va mavzu doirasidagi suhbatlarni uyushtirishda foydalanilgan (Turkiya radio-televideniye kurumi (TRT) O‘zbekistondagi vakolatxonasi 2025-yil 30-maydagi 30961330-UZ.00.00/94-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuvlarning mazmuni ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitilgan hamda Tariq Bug‘ra ijodining o‘zbek adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan talqin etilishi ta’minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 3 tasi Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar, 2 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinadi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etildi, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (shu jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 145 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Turk adabiyotida tarixiy roman janrining genizisi va takomili”** deb nomlanib, 1.1-faslida **“Tarixiy roman tabiati: gnoseologik va ontologik jihatlar”** tadqiq qilingan. Kitobxonlar tarixiy faktologik ma’lumotlarni o‘qishdan ko‘ra tarixiy mavzudagi badiiy asarlarni o‘qishni afzal ko‘radilar. Ayniqsa, bu janrdagi roman inson ruhiyati va ongi tarbiyalanishida muhim o‘rin tutadi. Chunki u faqatgina tarixiy faktlarni aks ettirish bilan cheklanmay, balki inson xarakterini ochib berish, davr ruhi va ijtimoiy-madaniy sharoitlarni tasvirlash orqali o‘quvchini fikrlashga, tarixiy haqiqatni anglashga undaydi. Tarixiy roman janrining shakllanishi adabiy jarayonning tabiiy evolyutsiyasi natijasi bo‘lib, uning genezisi turli madaniyatlar va davrlar kesimida shakllangan badiiy an‘analar, tarixiy tafakkur paradigmalari va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ingliz adabiyotshunosi Margaret Dudi tarixiy romanlarning metodologik asoslarini o‘rgangan. Uning fikricha, tarixiy roman yozuvchisi ikki asosiy tamoyilga amal qilishi kerak: birinchisi – tarixiy dalillarga asoslanish, ikkinchisi esa – o‘tmishni estetik uslubda ifodalash. Margaret tarixiy

romanlarni “haqiqat bilan badiiyatning sintez mahsuli” sifatida talqin qiladi<sup>8</sup>. Gnoseologik nuqtayi nazardan, tarixiy romanlar insoniyatning tarixiy bilimi va uning badiiy interpretatsiyasi o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Tarixiy roman muallifi tarixiy dalillarga asoslangan holda, badiiy tasavvur yordamida voqealarni qayta yaratadi. Tarixiy romanlarning ontologik jihati ularning mavjudlik tabiati, tarix va badiiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar hamda voqelikni qayta yaratish usullari bilan bog‘liq nazariy masalalarni qamrab oladi. Ontologiya, odatda, borliqning fundamental asoslari va uning namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganadi. Tarixiy romanlarda esa, bu tushuncha tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning sintez qilinishi, tarixiy voqealarning adabiy rekonstruktsiyasi hamda vaqt va makon kategoriyalarining badiiy talqini bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tarixiy roman janri tarixiy voqealarning rekonstruktsiyasi asosida shakllansa-da, uning mavjudligi sof tarixiy voqelik bilan cheklanmaydi. U, aksincha, tarixiy materialni qayta yaratish, muallifning dunyoqarashi va ideologik nuqtayi nazari orqali qayta talqin qilish vositasi sifatida qaraladi.

Birinchi bobning 1.2-fasli **“Tarixiy romanning rivojlanish tendensiyalari”** tadqiqiga bag‘ishlangan. Tarixiy roman janrining rivojlanish tendensiyalari adabiy jarayonning umumiy evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u turli davrlarda ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitga qarab o‘zgarib borgan. Ushbu janr dastlab an’anaviy tarixiy voqealarni tasvirlashga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik uning strukturasi va estetik tamoyillari sezilarli darajada murakkablashdi. Modern va postmodern davr adabiyoti tarixiy roman poetikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, unda retrospektiv va eksperimental yondashuvlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. An’anaviy tarixiy romanlarda tarixning obyektiv talqini ustuvor bo‘lsa, zamonaviy tarixiy romanlarda subyektivlik va ko‘p qirrali talqin usullari keng qo‘llanila boshlandi. Bu esa tarixiy voqealarning badiiy interpretatsiyasida yangi qiyofalar paydo bo‘lishiga, turli nuqtayi nazarlarning to‘qnashishiga hamda tarix va fantastikaning o‘zaro uyg‘unlashuviga zamin yaratdi. Bizgacha yaratilgan tadqiqotlarni va ilmiy xulosalarni umumlashtirgan holda biz tarixiy roman janrining rivojlanish tendensiyalarini quyidagicha tizimlashtirdik:

---

<sup>8</sup> Margaret A. D. The True Story of the Novel. – New Brunswick, NJ: Rutgers University Press, 1996. – P. 27.



Tarixiy roman janri adabiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'zining rivojlanish jarayonida doimiy yangilanish va moslashuv orqali zamonaviy davrga yetib kelgan. *XXI asrda texnologik taraqqiyot bu janrni yanada o'zgartirib, uni interaktivlik, audiovizual moslashuv va yangi shakllar bilan boyitmoqda.* Zamonaviy texnologiyalar tarixiy romanlarni nafaqat qog'oz va elektron kitoblar shaklida taqdim etish bilan cheklanmay, balki videoo'yinlar, virtual reallik (VR), audiokitoblar va sun'iy intellekt yordamida yangicha shakllarga olib chiqmoqda. Bunday o'zgarishlar tarixiy romanlarni yanada jonlantirgan holda, ularni nafaqat o'quvchilarga, balki interaktiv foydalanuvchilarga ham yo'naltirmoqda. Interaktiv tarixiy romanlar hozirgi kunda tobora kengayib bormoqda. Ularning eng yorqin namunalaridan biri videoo'yinlar asosida shakllangan tarixiy hikoyalardir. Masalan, "*Assassin's Creed*" o'yinlar seriyasi tarixiy roman janri bilan interaktiv o'yin imkoniyatlarini birlashtirib, o'yinchilarni tarixiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisiga aylantirmoqda<sup>9</sup>. Mazkur tendensiyalar turk romanchilik maktabining, xususan, tarixiy roman janrining takomillashuvida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Turk adabiyotida tarixiy roman janri XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan bo'lsa-da, uning ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Turk tarixiy romanlari, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab, milliy ruhni yuksaltirish va vatanparvarlik g'oyalarini ilgari surish vazifasini o'z zimmasiga olgan. Turk adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishida muhim omillar qatoriga, ayniqsa, XIX asrda Yevropa adabiyotidan amalga oshirilgan tarjimalar kiradi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, turk adabiyoti o'zining boy milliy adabiy merosiga ega bo'lgan. Bu meros tarkibiga diniy mazmundagi "manoqiblar", turk millatining har bir davrini badiiy shaklda aks ettirgan "dostonlar", "xalq hikoyalari" va "afsonalar" kiradi. Tarixiy asarlar uchun manba bo'lgan "g'azavotnoma", "manoqibnoma", "futuhatnoma" kabi asarlar ham o'ziga xos o'rni bilan ajralib turadi. Milliy ruh, tarix va bugunning uyg'unligi, realizm, psixologik tahlil va falsafiy mushohadalar turk tarixiy romanchiligining eng muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ushbu janrni jahon adabiyotidagi o'ziga xos va ahamiyatli hodisaga aylantirgan. Bu omillar natijasida turk tarixiy romanlari

<sup>9</sup> De Groot J. *The Historical Novel*. – London: Routledge, 2009.

nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan adabiy hodisalardan biriga aylangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tariq Bug‘ro tarixiy romanlari yangi turk nasri kontekstida”** deb nomlangan bo‘lib, bobning 2.1-faslida **“Tariq Bug‘roning tarixiy obraz yaratish mahorati”** masalasi tadqiq qilingan. Badiiy mahorat deganda, yozuvchining so‘z vositasida inson ruhiy olami, hayotiy murakkabliklar, ijtimoiy va falsafiy g‘oyalarni aks ettirish qobiliyati tushuniladi. Turk adabiyotining yirik vakillaridan biri Tariq Bug‘ro ham o‘zining badiiy mahorati bilan ajralib turadi. Uning romanlari turk tarixiy jarayonlarini yoritish, inson ruhiy olamini ochib berish va o‘ziga xos falsafiy mushohadalar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. Bug‘roning asarlarida tarixiy realizm, ichki monolog va syujet dinamizmi kuchli ifodalangan. U tarixiy jarayonlarni oddiy hikoya shaklida emas, balki o‘tgan voqealarni chuqur tahlil qilgan holda, ularning insoniyat taraqqiyotiga ta’sirini ko‘rsatish orqali tasvirlaydi. Bu jihat uning asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari va ma’naviy dunyosini yanada chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois, uning tarixiy romanlarida nafaqat voqealar rivoji, balki inson hayotidagi ma’naviy tajribalar, axloqiy ideallar va ruhiy metamorfozalar keng va ta’sirchan aks etadi. Bu xususiyatlar o‘z navbatida bir nechta muhim jihatlarni yuzaga chiqaradi. Birinchidan, qahramonlar jasorati ularning ma’naviy ildizlari bilan bog‘liq bo‘lib, Bug‘ro qahramonlarining ruhiyatida kechayotgan jarayonlarning hosilasi sifatida tasvirlanadi. Tariq Bug‘ro **“Afsus yoshligim”**, **“Qora qahrabo”**, **“Fir‘avning imoni”** kabi asarlari bilan tanilgan bo‘lsa-da, uning qolgan romanlarida qishloq ahlining hayoti va ular duch kelgan muammolarni tasvirlash uslubi, zamondoshlaridan ancha farq qiladi. U, asosan, o‘z asarlarida insoniyatning kundalik hayotini va unga xos bo‘lgan noaniqliklarni o‘rganishga intilgan yozuvchi sifatida ajralib turadi. U o‘z asarlarida har bir inson o‘z mehnatiga mas’ul bo‘lishi, ya’ni har bir kishi o‘z oldidagi vazifani bajarishi kerakligini ta’kidlaydi. Tariq Bug‘ro san’atkorning asosiy vazifasi san’at asari yaratish ekanligini va xalq ushbu asardan o‘ziga kerakli narsalarni olishini ta’kidlagan. Shuningdek, u san’atkor jamiyatga foyda keltirishi kerak deb hisoblagan va uning yuksalishi uchun ilmiy xolislik va samimiyatni alohida e’tiborga olish zarurligini bildirgan<sup>10</sup>. Tanpinarning qayd etishicha, Tariq Bug‘ro uslubga nisbatan talabchanligi bilan o‘z avlodiga mansub safdoshlaridan farq qiladi<sup>11</sup>. Tariq Bug‘ro so‘zlarni **“chertib-chertib”** tanlaydi, ortiqcha so‘z sarflashdan qochadi. U tanlagan so‘zlar turk tiliga mansub bo‘lib, o‘ylab topilgan emas. U turk tiliga katta e’tibor ko‘rsatadi. Buni turli sanalarda chop etilgan til xususidagi maqolalari mazmunidan anglash mumkin. Turk tili jamiyatiga nisbatan bildirgan keskin tanqidlari ham mana shu hassosiyati samarasidir. Bu borada, tadqiqot obyektimiz bo‘lib xizmat qilayotgan **“Usmon G‘ozixon”** romanining tahlili asosida muallifning tarixiy tafakkuri, obraz yaratish mahorati hamda tarixiy faktlarga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatish orqali ushbu savollarga ilmiy asoslangan javob topish mumkin. Aytish kerakki, asar nomi turk tilida **“Osmancik”** deb

<sup>10</sup> Tuncer H. Tarik Buğra. Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 1988.

<sup>11</sup> Tanpınar A. H. Edebiyat Hakkında Makaleler. İstanbul: Dergah Yayınları, 2000. – S. 128.

atalgan. O'zbek tiliga esa asar "Usmon G'ozixon" nomi ostida tarjima qilingan. Shu bois biz ish davomida tarjimadagi sarlavhadan foydalanishni ma'qul topdik.

"Usmon G'ozixon" romani nafaqat yozuvchining tarixiy roman janriga bo'lgan qiziqishini, balki uning milliy tarixni badiiy aks ettirishga nisbatan yuksak mas'uliyatini ham yaqqol namoyon etadi. Asar orqali adib o'z o'quvchisiga tarixni faqat faktlar majmuasi sifatida emas, balki badiiy-estetik va ma'naviy qadriyatlar manbai sifatida ko'rsatishga intilgan. Usmon G'ozixon murakkab va ziddiyatlarga boy tarixiy bir davrda yashaganiga qaramay, parokanda holatga tushib qolgan yurtdagi siyosiy va ijtimoiy tartibsizliklarga barham berib, mustahkam poydevorga ega bo'lgan qudratli davlat asoschisi sifatida tarix sahnasiga chiqqan yirik shaxsiyatdir. U o'z faoliyati orqali turk xalqining tarixida chuqur iz qoldirib, yurt ravnaqi, ilm-fan taraqqiyoti va tamaddun yuksalishi uchun zarur bo'lgan tarixiy shart-sharoitlarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Tarixiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Usmon G'ozixon shaxsida yurtga sadoqat, davlat barqarorligini mustahkamlash, uning sarhadlarini himoya qilish, siyosiy qudratni oshirish, do'stlarga sadoqat va dushmanlarga nisbatan qat'iylik, so'zga sobitlik, poklik, oila va el-yurtga mehr kabi yuksak axloqiy fazilatlar mujassam bo'lgan. Asarda tasvirlangan bu jihatlar o'quvchi qalbiga chuqur kirib borishi, uning tarixiy ongini uyg'otishi va badiiy-estetik zavq bag'ishlashi uchun muallif ushbu fazilatlarni holislik bilan yoritishga alohida e'tibor qaratgan. Yurtboshining hayoti va faoliyatini haqqoniy, adolatli yoritish — bu tarixiy roman muallifi zimmasidagi muqaddas burchdir. Ayni shu sababli, yozuvchi milliy manfaatlar va tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan yondashib, Usmon G'ozixonning hayot yo'lini nafaqat tarixiy faktlar asosida, balki badiiy tasvir orqali chuqur ochib berishga intilgan. Muallif nafaqat Usmonning zabt yurishlarini, balki keng kitobxon ommasi uchun kamroq ma'lum bo'lgan, hozirgi kungacha tasavvur doiramizda nisbatan xira bo'lib kelgan insoniy fazilatlari, shaxsiy hayoti, oilaviy rishtalari, ma'naviy-ruhiy olami va bunyodkorlik faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Bu jihatlar roman obrazlar tizimining murakkab va serqirra bo'lishini ta'minlaydi. Yozuvchining qarashlariga ko'ra, Usmon G'ozixon faqatgina harbiy sarkarda yoki siyosiy yetakchi emas, balki xalq qalbidagi ijobiy o'zgarishlar uyg'otgan, bir-biridan uzoqlashgan yurt bo'laklarini yakdillikka olib kelgan buyuk bir ma'naviy-ruhiy rahnamo sifatida ham namoyon bo'ladi. Tariq Bug'ro romanlaridagi qahramonlarni umumiy holda ijobiy, salbiy va o'zgaruvchan qahramonlar tarzida uch guruhga ajratish mumkin. Salbiy qahramonlar deyarli barcha asarlarda mavjud bo'lib, ular muallif tomonidan juda jonli va hayotiy tarzda tasvirlangan. Bu qahramonlar nafaqat asarning badiiy qadriyatini oshiradi, balki undagi asosiy qarama-qarshiliklarni ham yanada chuqurroq ifodalaydi. Nosaro qahramonlarining bu ikki tomonlama tasviri Tariq Bug'roning G'arb va Sharq madaniyatlari o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan nozik va murakkab yondashuvini ko'rsatadi, u hech qachon bir tomonni mutlaqo ijobiy yoki salbiy qilib ko'rsatmaydi, balki har bir qahramonni uning shaxsiy fazilatlari va kamchiliklari bilan to'liqroq ifodalashga harakat qiladi.

Ikkinchi bobning 2.2 fasli *“Tariq Bug‘ro romanlarida tarixiylik konsepsiyasi”* tadqiqiga bag‘ishlangan. “Usmon G‘ozixon” romanida yozuvchi tomonidan tarixiy materialga bo‘lgan munosabat — ya’ni voqealarning xolis talqini, shaxsiy baholardan yiroqlik, manbaviy aniqlikka asoslangan rekonstruksiya yondashuvi — tarixiy romanistikaga xos ilmiylik mezonlari asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Tarixiy shaxs obrazini yaratishda estetik idealizatsiyadan xoli bo‘lgan, ammo shu bilan birga uni milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda tasvirlashga intilgan uslub roman muallifining badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi. Yana bir muhim jihat shuki, mazkur roman nafaqat tarixiy voqealarni badiiy ifodalashni maqsad qilgan, balki u orqali milliy xotirani mustahkamlash, tarixiy ongni shakllantirish, zamonaviy o‘quvchi tafakkurida tarixiy voqeliklarga nisbatan mas‘uliyat hissini uyg‘otish kabi murakkab ijtimoiy-falsafiy vazifalarni ham ado etishga urinadi. Bu esa, roman muallifini oddiy badiiy tasvirchi emas, balki tarixiy-falsafiy tafakkur egasi sifatida talqin etish imkonini beradi. Roman matnida tarixiy shaxsiyatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bir qator muhim siyosiy voqealar tizimli tarzda yoritilgan bo‘lib, ular asar syujetining tarixiylik darajasini oshirishga, voqelikni real kontekstda ifodalashga xizmat qiladi. Asarda qayd etilgan asosiy tarixiy figurantlar quyidagilardir: Ertug‘rul G‘oziy, Qunduz, Savjibek, Jonqiz, Usmon G‘oziy, Orxon, Dursun Faqiy, Ato Boli, hamda Kosses Mixail. boshqa holatlar asar davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarixiy voqealarning tasviridan ko‘ra, bosh qahramon — Usmon G‘oziyning xayoliy oqimlari, ichki kechinmalari va tarixiy ongining uyg‘onish jarayoni orqali beriladi. Quyidagi badiiy iqtibos buning yaqqol namunasi bo‘lib xizmat qiladi: *“Sulaymon Shoh G‘oziy... buvasi... ellik ming xonadon bilan Arzirumga, Erzinjon tomonlariga ko‘chganmidi? Sulaymon Shohdan keyin nima uchun amakilari — Sungur Tekin va Kuntug‘di Ona yurtga qaytib ketgan, otasi esa shimoli-g‘arb tomonga, Rum diyori sari harakat qilgan? Yana minglab uylar bilanmi? Ana shu jumboq Usmonning ongida aylanardi...”*<sup>12</sup>

Bu tarzda berilgan ong oqimi — ya’ni ichki monolog shaklidagi tafakkur parchalari — tarixiy roman poetikasida muhim vosita hisoblanadi. Muallif mazkur badiiy uslub orqali tarixiy haqiqatni bevosita bayon qilish o‘rniga, qahramonning ongida kechayotgan murakkab tarixiy-falsafiy anglash jarayonini tasvirlashni maqsad qilgan. Bunday yondashuv o‘quvchini voqealarning tashqi tasviridan ko‘ra, tarixiy ongning ichki qatlamlariga chuqurroq kirib borishga undaydi. Demakki, tarixiy roman faqatgina voqealarning ketma-ket tasviri emas, balki voqeyi qatlamlar orqali milliy o‘zlikni izlash, tarixiy ongni uyg‘otish vositasiga aylanadi. Tarixiy voqelik va badiiy tasvir uyg‘unligini namoyon etadi. Jamiyatning tashqi beqarorligi fonida ichki ruhiy qarama-qarshiliklarning chigallashuvi roman syujetining dramatik kuchini yanada oshiradi. «Usmon G‘ozixon” romanida obrazlilik va emotsional ta’sirchanlik roman tili jozibasi orqali ta’minlangan.

Muallif har bir qahramon tasvirida uning o‘ziga xos nutq tiplaridan foydalanadi. Badiiy asarda yozuvchi eng avvalo xarakter mohiyatiga kirishga intilar ekan, uning tilidagi rang-baranglikni, qaysi so‘zlar uning lug‘atiga kirishi

---

<sup>12</sup> Бугро Т. Усмон Ғозихон. Тарихий роман. / Жаҳон адабиёти, 2006 йил, 5-сон. – В. 16.

yoki kirmasligini aniq biladi. Masalan, Usmon G'ozixon va uning atrofidagi yaqinlari bilan bog'liq bo'lgan nutqiy epizodlarda adib folklor asarlari, dostonlarga xos uslubda «gapiradi», uning nutqida ritmik takrorlar, tashbehtar, uyushiq bo'lakli gaplar, ta'kidlar ko'plab ishlatiladiki, o'ziga xos mayin she'riy uslubni namoyon etadi. Masalan, Usmonning o'z qilichi haqidagi o'ylarining tasvirini olsak:

*“Bir qilich...O'ylashni, yetti o'lchab bir kesishni taqozo etardi bu qilich. Otasining qilichi edi bu! Va yana bir qilich...Ko'zing va qulog'ing, g'aming va quvonching, his va hayajoning, buguning va kelajaging amrida, ixtiyorida edi bu qilich. O'zining qilichi edu bu qilich”.* (S.36) Bu parcha, o'lim va qahramonlik, va hokimiyat timsoli bo'lgan qilichni tasvirlaydi. Qilich – shaxsiyatning, tarixiy shaxsning o'ziga xos ramzi bo'lib, u ota-bolalar merosini, hukmdorlikni va taqdirni ifodalaydi. Qilichning otaning naslidan meros qolganini eslatish, tarixiy kontekstda muhim, chunki bu o'ta qadrlanadigan sovg'a, hukmdorlik yoki jangovar qobiliyatni meros qilib olishni anglatadi. Muallif qilichni ikki o'lchovda ko'rsatadi: bir tomondan, u «yetti o'lchab bir kesishni taqozo etadi» – bu hukmdorning mulohazali va to'g'ri qarorlar qabul qilish zarurligini anglatadi. Ikkinchi tomondan esa, qilichning “ko'zing va qulog'ing, g'aming va quvonching” amrida bo'lishi – bu uning insonning ichki holatiga ta'sir qilishi, shaxsning shaxsiyatini shakllantirishi va uning hayotidagi barcha yirik qarorlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Qilich o'zining ixtiyorida va ko'rinishida haqiqiy hukmdorlikni va mas'uliyatni simgolashtiradi. Mazkur misolda Tariq Bug'ro tarixiy tasvir orqali shaxsning ichki kurashlarini, mas'uliyatni va tarixiy merosni taqdim etadi. Ota va o'g'il o'rtasidagi bog'liqlikni bildiruvchi qilich, hukmdorning qanday qilib o'zligini, o'tgan tarixni va kelajakka bo'lgan mas'uliyatni o'zida mujassamlashtirishini ko'rsatadi. Aynan shu jihatlar — ya'ni tarixiy o'tmishning ruhiy-falsafiy qatlamlarini badiiy idrok vositasi orqali ochib berish — turk adabiyotida tarixiy roman janrining o'ziga xos metodologiyasini shakllantirgan. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, Tariq Bug'ro ijodidagi tarixiy va falsafiy-badiiy talqin uslubi alohida e'tibor talab etadi. Jumladan, uning “Kichik og'a” (“Küçük Ağa”) romani turk tarixining XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi eng murakkab, o'zgaruvchan davrini aks ettiruvchi, ammo bu tarixiy burilishlarni faqat tashqi siyosiy voqealar sifatida emas, balki inson ongi, iymoni, ruhiyati va jamiyatdagi rolini o'zgartiruvchi hodisalar sifatida talqin qiluvchi nodir asardir. Asarning ikkinchi qismi “Küçük Ağa Ankara'da” (“Kichik o'g'a Anqarada”, 1969) va ushbu tarixiy-badiiy trilogiyaning mantiqiy yakuni sifatida “Firavun İmanı” (“Fir'avn iymoni”, 1976) e'lon qilingan. Mazkur romanlarda Turkiyada 1920-yillarda yuzaga kelgan og'ir ijtimoiy-siyosiy muhit, milliy ozodlik kurashi, xalq harakati, diniy va dunyoviy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek, bu murakkab jarayonlar ichida o'zlikni anglash va milliy o'zgarishlarga daxldorlik kabi masalalar chuqur badiiy-falsafiy tahlil asosida yoritilgan. Turk adabiyotshunosligida ushbu roman «milliy roman» (milli roman) sifatida baholanib, u o'z zamonasi uchun nafaqat tarixiy voqealarning tasviri, balki xalq ruhiyati va ongida yuz bergan muhim siljishlarning badiiy aksidir.

